

“ILMIY TAFAKKUR VA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY KONFERENSIYASI
Qabul qilindi: 28-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 2-oktabr 2026-yil • Nashr qilindi: 07-oktabr 2026-yil

FARG‘ONA VODIYSIDA BRONZA VA TEMIR DAVRLARI MIGRATSIYA JARAYONLARI

A.Aloxunov

FDU O‘zbekiston-Xitoy arxeologiya qo‘shma kafedrasi dotsenti

L.Xasanov

FDU O‘zbekiston-Xitoy arxeologiya qo‘shma kafedrasi o‘qituvchisi



Annotatsiya. Maqolada miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmi – I ming yillikda Farg‘ona vodiysiga chorvador guruhlarning kirib kelishi arxeologik va paleogenetik ma’lumotlar asosida yoritiladi. Migratsiyaning uch bosqichi ajratiladi: Qayroqqum madaniyati bilan bog‘liq dasht chorvadorlari, Eylaton–Oqtom yodgorliklarida aks etgan sak doirasidagi guruhlar hamda miloddan avvalgi II asrdan keyingi ko‘chmanchi guruhlar harakati. Jarayon bosqichma-bosqich kechgani va o‘troq dehqonlar bilan xo‘jalik aloqalari orqali namoyon bo‘lgani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, so‘nggi bronza, ilk temir davri, Qayroqqum madaniyati, Chust madaniyati, Eylaton madaniyati, Andronova madaniy birligi, saklar, chorvadorlar migratsiyasi, paleogenetika.

KIRISH

Farg‘ona vodiysi Tyanshan va Pomir-Oloy tizmalari oralig‘idagi berk botiq bo‘lib, uzunligi 370 km, eni 190–200 km, maydoni 78 ming km² ga teng [9]. Markazida cho‘l va dasht, chekkalarida sersuv vohalar, atrofida yozgi tog‘ yaylovlari joylashgani dehqon va chorvador jamoalarning yonma-yon yashashiga zamin yaratgan.

So‘nggi bronza va ilk temir davrida vodiyda ikki xo‘jalik-madaniy an’ana shakllandi: vohalarda dehqonlar, markaziy cho‘l va atrof tog‘larda chorvadorlar yashagan; chorvadorlarning bir qismi asta-sekin ko‘chmanchi turmushga o‘tgan [21].

Dehqonchilik madaniyati Y.A. Zadneprovskiy [5], dasht bronzasi yodgorliklari B.A.

Litvinskiy va hammualliflari [8], ilk temir va antik davr qabristonlari N.G. Gorbunova [16] tadqiqotlarida o‘rganilgan. So‘nggi yillarda ularga Andijon viloyatidagi Xonobod-1 qabristoni materiallari [10; 18] va qadimgi DNK tahlillari [22] qo‘shildi.

Shunga qaramay, chorvadorlarning kelib chiqishi masalasi ochiq qolmoqda. B.A. Litvinskiy Qayroqqum madaniyati mahalliy asosda shakllangan deb hisoblagan, S.P. Tolstov va M.A. Itina esa dasht qabilalarining janubi-sharqqa siljishini asoslashgan [6, b. 75–79]. Migratsiyaning vaqti, yo‘nalishi va shakli haqida yagona to‘xtam yo‘q.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot bo‘yicha nashr etilgan manbalar bazasini quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin: qazishma natijalari umumlashtirilgan monografiya va dissertatsiyalar (Y.A. Zadneprovskiy, B.A. Litvinskiy, N.G. Gorbunova, B.X. Matboboyev); ilmiy jurnallardagi maqolalar, jumladan «FarDU ilmiy xabarlari» va «Narodi i religii Yevrazii»; qomusiy nashrlar (Encyclopaedia Iranica, YUNESKOning «Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixi»).

NATIJA VA MUHOKAMA

Vodiyning g‘arbiy qismidagi Qayroqqum madaniyati miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmi – I ming yillik boshlariga oid «dasht bronzasi» madaniyatlari doirasiga kiradi; uning yaqin o‘xshashlari Xorazm va Zarafshon vodiysida uchraydi [21].

B.A. Litvinskiy O‘rta Osiyo dasht bronzasida uchta madaniyatni ajratgan: Tozabog‘yob, Qayroqqum va Yettisuv. Uning fikricha, Qayroqqum madaniyatiga Andronova madaniyati kuchli, Yog‘ochband (Srubnaya) madaniyat qisman ta’sir ko‘rsatgan; janubiy dehqonchilik madaniyatlarining ta’siri ham seziladi [6, b. 75–76].

Turkiston tizmasi shimoliy etagidagi Oqtangi qoya panasida bronza qatlamlari ostidan eneolit qatlami topilgan. Shu asosda madaniyat mahalliy zaminda, shimoldan kelgan ilk Andronova unsurlarining katta ishtirokida shakllangan degan faraz bildirilgan. Quyi bronza qatlami uchun 3120±140 yil radiokarbon sanasi olingan [6, b. 78].

Dafn marosimi chetdan kelgan an’anani ko‘rsatadi: tosh qutili qabrlar Daxana, Qayroqqum, Vodil va Karamko‘l qabristonlarida qayd etilgan, bu odat dasht bronzasi qabilalariga xos [2, 14-qism; 3].

Genetik ma’lumot arxeologik xulosaga mos keladi. Farg‘ona viloyatidagi Kashkarchi

(Qo‘chqorchi) qo‘rg‘on-qabristonidan ikki individ (skelet)ning genomi o‘rganilgan [22]. Ular Ko‘kcha-3 (Xorazm) namunalari bilan birga o‘rta va so‘nggi bronza davri dasht chorvadorlari – Steppe_MLBA guruhiga kiritilgan [19]. Shunday qilib, birinchi bosqichda uch mezon mos tushadi: yangi dafn marosimi, Andronova tipidagi sopol va dasht aholisiga xos genom.

Chust madaniyatidan oldingi dehqonchilik yodgorliklari vodiyda hozircha topilmagan. B.X. Matboboyev shu sababli bu madaniyatning paydo bo‘lishini «innovatsiya» deb baholagan; faqat Xok va Aflotun xazinalari undan oldingi davr ehtimoliga ishora qiladi. Chust manzilgohini 1950 yilda M.E. Voronets va V.I. Sprishevskiy ochgan; V.I. Sprishevskiy u yerda 7000 m² maydonni qazigan. Sharqiy Farg‘onada 60 ga yaqin yodgorlik ma’lum, eng yiriklari – Dalvarzin (25 ga) va Ashqoltepa (13 ga) [9].

Xo‘jalik aralash bo‘lgan. Dalvarzinda dehqonchilik qurollari ulushi 48%, Chust manzilgohida 27,5%; Chustda mayda shoxli mol chorvachiligi muhimroq o‘rin tutgan [9]. Uy hayvonlari tarkibida tuya, eshak, ot, qoramol, qo‘y va echki bo‘lgan [20, b. 107].

Dasht ta’siri turar joyda ko‘rinadi: yerto‘la dasht bronzasi qabilalarining yetakchi uy tipi bo‘lgan. Metall buyumlar to‘plamida ham «yot» madaniyatlar ta’siri qayd etilgan. Biroq Chust manzilgohlarida dasht sopolining birorta parchasi topilmagan; aksincha, Chust sopoli Qayroqqum makonlarida va Janubiy Farg‘onadagi Toshqo‘rg‘on qabristonida uchraydi [9]. Demak, sopol buyumlar oqimi bir tomonlama – dehqonlardan chorvadorlarga yo‘nalgan. Bu ikki jamoa qo‘shilib ketmay, ayirboshlash orqali bog‘langanini ko‘rsatadi.

Madaniyatning davri bahsli: qomusiy nashrda miloddan avvalgi XV–IX asrlar ko‘rsatilgan [20, b. 107], B. Abdullayev esa vodiyning o‘troq madaniyatlarini (Chust va Sho‘raboshot) miloddan avvalgi XIV–I asrlar bilan belgilaydi [1]. A. Asqarov Chust madaniyatini Movarounnahrning ilk temir davri madaniyatlari qatorida ko‘rib chiqadi [12].

B.I. Marshak fikricha, Chust merosi o‘zgarishlar bilan miloddan avvalgi II asrgacha davom etgan (Eylaton yoki Eylaton–Oqtom madaniyati). Bu davrda ko‘p xonali xom g‘isht imoratlar va charxda yasalgan sopol paydo bo‘lgan. Farg‘ona ko‘chmanchilari madaniyati sak madaniyatining bir varianti bo‘lgan; ko‘chmanchilar o‘troq aholi yasagan sopoldan foydalangan [21].

Farg‘ona va Oloy qabristonlarida katta qo‘rg‘onlar yo‘q. Murdalar sayoz chuqur va tosh qutilarga chalqancha uzala yoki g‘ujanak holda qo‘yilgan. Tayanch yodgorliklar – Eylaton shahar xarobasi va Oqtom qabristoni. N.G. Gorbunova bu qabristonlar sopoli Yettisuv qabrlarinikiga yaqinligini qayd etgan [2, 5-qism]. Tosh qoplamali qabr inshootlari Kungay, Sufon va Oqtom qabristonlarida ma’lum [2, 14-qism].

B. Abdullayev Eylaton qo‘lda yasalgan sopolini Qayroqqum madaniyatining so‘nggi bosqichi bilan taqqoslagan. Uning xulosasiga ko‘ra, Eylaton madaniyati dehqon Chust madaniyati bilan emas, chorvador Qayroqqum madaniyati bilan genetik bog‘liq; chorvador va dehqon madaniyatlarining sintezi miloddan avvalgi I ming yillik o‘rtalaridan kuchaygan [1; 10].

Andijon viloyatidagi Xonobod-1 qabristonida 2020–2022-yillarda qazishma o‘tkazilgan. 2021-yilda M1 qabri to‘liq ochilgan, qo‘shni M3, M4, M5 qabrlari aniqlangan; qo‘rg‘onlar va sopol Eylaton madaniyatiga xos [18]. Ayrim idishlarning shakli Eylaton, naqshi esa Chust va Sho‘raboshot madaniyatlariga xos; bu sintezning bevosita dalilidir [11].

Temir davrida Yevrosiyo dashtlarida hukmron bo‘lgan skif-sak guruhlari genetik jihatdan bir xil emas: ularning ildizi so‘nggi bronza chorvadorlari, yevropalik dehqonlar va Janubiy Sibir ovchi-termachilariga borib taqaladi [13]. Tyanshan saklari genomida dasht chorvadorlari (Steppe_MLBA), sharqiy (Mo‘g‘uliston so‘nggi bronzasi) va janubiy voha dehqonlari (BMAK) bilan bog‘liq ulushlar aniqlangan. Janubiy ulush vaqt o‘tishi bilan ortgan; tadqiqotchilar buni temir davri davomidagi kichik hajmli, ammo uzluksiz gen oqimi bilan izohlaydi [15].

Janubiy O‘zbekistonning so‘nggi temir davri aholisida bronza davri genofondi saqlangan, dasht ulushi esa ortgan; bu shimoliy dashtdan janubga tomon harakat kuchayganini ko‘rsatadi [19, b. 4908]. Bu ma’lumot Farg‘onaga bevosita tegishli emas, lekin umumiy yo‘nalishni tasdiqlaydi.

Natijalar chorvadorlarning vodiyga kirib kelishi kamida uch bosqichda kechganini ko‘rsatadi. Birinchi bosqich kengroq jarayonning bir qismi: miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida dasht qabilalari janubga siljib, dehqonlar bilan aloqaga kirishgani shubhasiz fakt sanaladi [6, b. 79]. Dalillar bir martalik bosqinni emas, uzoq

davom etgan kirib kelishni ko‘rsatadi: chorvador va dehqon jamoalari asrlar davomida yonma-yon yashagan, sopol bir tomonlama almashgan.

Qo‘shni tog‘li hududlar ma’lumoti ham shu xulosaga mos. Jung‘or Olatovida bronza davri chorvadorlari tog‘ zonasida 50 km dan uzoqqa ko‘chmagan [14]. G‘arbiy Tyanshanda (Shinjon) miloddan avvalgi XVIII–XIV asrlarga oid Andronova doirasidagi guruhlar yerlardan mavsumiy, davriy ravishda foydalangan [17]. Farg‘onada ham chorvadorlar tog‘ yaylovi va vodiy qishlovi oralig‘idagi qisqa mavsumiy ko‘chishlar orqali asta-sekin o‘rnashgan bo‘lishi mumkin; bu faraz vodiyning o‘zida izotop tahlillari bilan tekshirilishi kerak.



Manbalar uchta yo‘nalishga ishora qiladi. Birinchisi – shimoli-g‘arb va g‘arb, Sirdaryo bo‘ylab: Toshkent vohasi va Zarafshon yodgorliklari Qayroqqum va Tozabog‘yob madaniyatlari bilan bog‘lanadi [6, b. 76–78]. Ikkinchisi – shimoli-sharq, Yettisuv va Tyanshan: Eylaton–Oqtom qabristonlari sopolining Yettisuv bilan o‘xshashligi va sak doirasi [2, 5-qism]. Uchinchisi – sharq, Tarim botig‘i: Chust madaniyatining tosh pichoq, o‘roq va naqshli sopoli Shinjondagi zamondosh madaniyatlarga o‘xshaydi [20, b. 107]; bu aloqalar so‘nggi tadqiqotda maxsus tahlil qilingan [7]. Sharqiy aloqa chorvadorlardan ko‘ra ko‘proq dehqon madaniyatiga tegishli, shu sababli uni chorvadorlar migratsiyasi dalili sifatida ehtiyotkorlik bilan qo‘llash lozim.

Miloddan avvalgi III–II asrlar chegarasida Tyanshan saklari zaiflashgan: bir qismini yuechjilar siqib chiqargan, bir qismi usunlarga bo‘ysungan [2, 5-qism]. Miloddan avvalgi II asrda Xitoy manbalari rivojlangan shahar madaniyatiga ega Dayyuan (Dovon) o‘lkasini tasvirlaydi; u odatda Farg‘ona bilan tenglashtiriladi. Milodiy era boshidan keyin vodiyda katakomba, yonma qabr va tosh inshootli keng qabristonlar paydo bo‘lgan. Bu turli etnik guruhlarga mansub ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchilarning birga yashaganini aks ettiradi; B.I. Marshak ularni Qovunchi madaniyati qabilalari bilan bog‘laydi va ular, ehtimol, Chochdan vodiyga asta-sekin kirib kelgan deb hisoblaydi [21]. N.G. Gorbunova bu davr yodgorliklarini Qo‘g‘ay–Qorabuloq madaniyati sifatida ajratgan [4].

XULOSA

Farg‘ona vodiysiga bronza va ilk temir davrlarida chorvador aholining kirib kelishi bir

martalik migratsiya yoki bosqin emas, balki turli davrlarda kechgan bosqichma-bosqich jarayonlar majmuidir. Mavjud arxeologik va genetik ma’lumotlar uni shartli ravishda kamida uch bosqichga ajratish imkonini beradi: so‘nggi bronza davrida Qayroqqum madaniyati doirasidagi harakatlar, ilk temir davrida Eylaton–Oqtom yodgorliklari va sak doirasi bilan bog‘liq jarayonlar hamda miloddan avvalgi II asrdan keyingi yangi migratsion harakatlar.

Birinchi bosqich Qayroqqum madaniyati materiallari bilan bog‘liq bo‘lib, uning tosh qutili qabrlari, dafn marosimi va sopol an’anasi Andronova madaniy-tarixiy birligiga yaqin. Kashkarchi qabristonidan aniqlangan ikki individning Steppe_MLBA guruhiga mansubligi ham bu jarayon Yevrosiyo dasht mintaqalari bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Biroq bu ma’lumotlarni muayyan etnik guruhning ko‘chib kelishi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tenglashtirib bo‘lmaydi: arxeologik madaniyat, genetik komponent va etnik mansublik bir-biriga to‘liq mos tushmaydi.

Chorvador va dehqon jamoalari dastlabki bosqichlarda yagona madaniy muhitga qo‘shilib ketmagan. Ular alohida xo‘jalik va madaniy an’analarga ega jamoalar sifatida yashab, asosan ayirboshlash orqali bog‘langan; sopol buyumlarning dehqonlardan chorvador muhitiga o‘tishi shu aloqalarning arxeologik dalilidir.

Ilk temir davrida Eylaton madaniyatining ayrim belgilari Qayroqqum chorvadorlari an’analari bilan bog‘lanadi, chorvador va o‘troq aholi munosabatlari esa murakkablashadi. Chorvador va dehqon an’analarining barqaror sintezi, ehtimol, miloddan avvalgi I ming yillik o‘rtalaridan kuchaygan; uni to‘liq shakllangan madaniy sintez sifatida talqin qilish uchun qo‘shimcha dalillar zarur.

Mavjud ma’lumotlar bu jarayonlarni to‘liq rekonstruksiya qilish imkonini hali bermaydi. Shu sababli Chust, Eylaton va ular bilan xronologik bog‘liq yodgorliklardagi inson qoldiqlarini qadimgi DNK tahlili, stabil izotop tadqiqotlari va radiokarbon sanalash usullari yordamida, arxeologik kontekst bilan birgalikda kompleks o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Б.М. К проблеме эйлатанской культуры древней Ферганы //

Вестник МИЦАИ. 2023. № 35. – С. 19–35.

2. Археология и история древнего и средневекового Кыргызстана. 5- ва 14-қисмлар [Электрон ресурс]. URL: https://kghistory.akipress.org/unews/un_post:1457 ; https://kghistory.akipress.org/unews/un_post:1561

3. Гамбург Б.З., Горбунова Н.Г. Новые данные о культуре эпохи бронзы Ферганской долины // Советская археология. 1957. № 3. – С. 130–135.

4. Горбунова Н.Г. Кугайско-карабулакская культура Ферганы // Советская археология. 1983. № 3. – С. 23-46.

5. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1962. – 328 с. (Материалы и исследования по археологии СССР, № 118).

6. Итина М.А. О месте тазабагъябской культуры среди культур степной бронзы // Советская этнография. 1967. № 2. – С. 62–79.

7. Ли Еюй. К вопросу о культурных взаимодействиях между Таримской и Ферганской впадинами в эпоху поздней бронзы // Народы и религии Евразии. 2026. Т. 31, № 2. – С. 7–29.

8. Литвинский Б.А., Окладников А.П., Ранов В.А. Древности Кайрак-Кумов (Древнейшая история Северного Таджикистана). Душанбе, 1962. (Труды АН Таджикской ССР, т. 33). – 404 с.

9. Матбабаев Б.Х. Локальные варианты чустской культуры Ферганы: дис. … канд. ист. наук. Л., 1985. URL: https://cheloveknauka.com/lokalnye-varianty-chustskoy-kultury-fergany

10. Abdullayev B. Farg‘ona vodiysi so‘ngi bronza va ilk temir davrida // FarDU ilmiy xabarlari. 2023. № 1. https://ilmiz.uz/maqola/44155-fargona-vodiysi-songi-bronza-va-ilk-temir-davrida

11. Andijon viloyati Xonobod shahri o‘rnida qaysi madaniyat vakillari yashagan? // O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi sayti. URL: https://www.academy.uz/uz/page/pdf/andijon-viloyati-xonobod-shahri-ornida-qaysi-madaniyat-vakillari-yashagan

12. Askarov A. The beginning of the Iron Age in Transoxania // History of

Civilizations of Central Asia. Vol. I / eds. A.H. Dani, V.M. Masson. Paris: UNESCO Publishing, 1992. – P. 441–458.

13. Damgaard P. de B., Marchi N., Rasmussen S. et al. 137 ancient human genomes from across the Eurasian steppes // Nature. 2018. Vol. 557, no. 7705. – P. 369–374.

14. Frachetti M.D. Archaeological Explorations of Bronze Age Pastoral Societies in the Mountains of Eastern Eurasia // The Silk Road. 2004. Vol. 2, no. 1. URL: https://edspace.american.edu/silkroadjournal/wp-content/uploads/sites/984/2017/09/Archaeological-Explorations-of-Bronze-Age-Pastoral-Societies.pdf

15. Gnecchi-Ruscone G.A. et al. Ancient genomic time transect from the Central Asian Steppe unravels the history of the Scythians // Science Advances. 2021. Vol. 7, no. 13.

16. Gorbunova N.G. The Culture of Ancient Ferghana, VI century B.C. – VI century A.D. Oxford, 1986. (BAR International Series, 281).

17. Jia P., Caspari G., Betts A. et al. Seasonal movements of Bronze Age transhumant pastoralists in western Xinjiang // PLoS ONE. 2020. Vol. 15, no. 11.

18. Kambarov N.Sh. Andijon viloyatidagi Xonobod-1 yodgorligida ikkinchi mavsum dala tadqiqot natijalari // FarDU ilmiy xabarlari. 2022. № 5.

19. Kumar V., Bennett E.A., Zhao D. et al. Genetic continuity of Bronze Age ancestry with increased Steppe-related ancestry in Late Iron Age Uzbekistan // Molecular Biology and Evolution. 2021. Vol. 38, no. 11. – P. 4908–4917.

20. Mallory J.P., Adams D.Q. (eds.). Encyclopedia of Indo-European Culture. London; Chicago: Fitzroy Dearborn, 1997.

21. Marshak B.I. Farḡāna i. In the pre-Islamic period // Encyclopaedia Iranica. 1999 (онлайн нашр, янгиланган: 2013). URL: https://www.iranicaonline.org/articles/fargana-i-in-the-pre-islamic-period/

22. Narasimhan V.M., Patterson N., Moorjani P. et al. The formation of human populations in South and Central Asia // Science. 2019. Vol. 365, no. 6457.